<b>Berdiyev Temur Azamatovich</b>	
CHAKANA SAVDO KORXONALARIDA ELEKTRON TIJORAT TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH USULLARI.....	764
<b>Safarov Baxtiyor Djurakulovich</b>	
NAVOIY VILOYATI XATIRCHI TUMANIDA MAVJUD TURISTIK RESURSLARDAN ICHKI VA XALQARO TURIZMDA FOYDALANISH IMKONIYATLARI .....	769
<b>Turayev Abduvoxid Kuldashevich</b>	
RAQAMLI PLATFORMALARNI RIVOJLANTIRISH ASOSIDA MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALARNING INKLUZIVLIGINI OSHIRISHNING STRATEGIK YO'NALISHLARI.....	776
<b>Azizbek Nusratov San'atillayevich</b>	
MINERAL VA KIMYOVIY QO'SHIMCHALAR BILAN KOMPLEKS MODIFIKATSIYALASH ORQALI SEMENT MATRITSASI MUSTAHKAMLIGINI OSHIRISH.....	781
<b>Turgaev Jambul Adilbaevich</b>	
KICHIK BIZNES SOHASIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR TRANSFERINI TA'MINLASH OMILLARI VA ISTIQBOLLARI.....	787
<b>Yodgorova Xalima To'liqinovna</b>	
WAYS TO IMPROVE PRICING POLICY MECHANISMS OF STATE-OWNED ENTERPRISES.....	792
<b>Mavlonov Ozod Ulug'bekovich</b>	
AN'ANAVIY VA SUN'IY INTELLEKTGA ASOSLANGAN BOSHQARUV TIZIMLARINING QIYOSIY TAHLILI (MS1H1 SERVO MOTORI MISOLIDA) .....	798
<b>Pirmatov Nurali Berdiyevich, Egamov Akmal Mamarasulovich, Mamarasulov Nodir Akmal o'g'li</b>	
NODAVLAT OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MOLIYAVIY BARQARORLIK VA LIKVIDLIKNI BOSHQARUV HISOBIGA INTEGRATSIYALASH: KO'RSATKICHLAR TIZIMI, PROGNOZLASH VA ERTA OGOHLANTIRISH MEXANIZMI.....	803
<b>Xojiboyev Muxiddin Shodimuxamedovich</b>	
TAYYOR MAHSULOT QADRSIZLANISHI HISOBINI XALQARO STANDARTLARGA MOSLASHTIRISH: ISHCHI SCHYOTLARINI JORIY ETISHNING METODIK ASOSLARI.....	808
<b>Babakulova Matluba Kurbannazarovna</b>	
ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И МЕДЕЛИ УПРАВЛЕНИЯ СИСТЕМОЙ РАБОТЫ В МАХАЛЛЯХ.....	812
<b>Kosimjonov Nozimjon Kozimjonovich</b>	
MINTAQALARNING BARQAROR IQTISODIY O'SISHIDA YASHIL IQTISODIYOT KONSEPSIYASINING AHAMIYATI: NAZARIY YONDASHUVLAR TAHLILI .....	815
<b>Maxmudov Sobir Xudoyberdiyevich</b>	
TURISTIK XIZMAT BOZORINING MOHIYATI, UNING VAZIFALARI VA MARKETING STRATEGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	821
<b>Payazov Murod Maqsudovich, Salimova Mumtozbeqim Jahongir qizi, Shahnoza Xudoyberdiyeva Davlatovna</b>	
O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY HISOBLASH TEXNOLOGIYALARINING O'RNI .....	825
<b>Absamatov Asqar Ergashovich</b>	
MINTAQAVIY TURIZM SOHASI UCHUN MALAKALI KADRLAR TAYYORLASHNING USTUVOR YO'NALISHLARI BO'YICHA TAVSIYALAR .....	830
<b>Raxmatov Adxam Itolmasovich</b>	
YAROQSIZ AVTOMOBIL SHINALARINI QAYTA ISHLASH USULLARI TAHLILI .....	839
<b>Maxmonov Uktam Ashurovich</b>	
TA'LIM XIZMATLARI BOZORINING RIVOJLANISHI VA RAQOBATBARDOSHLIGINI PROGNOZLASH METODLARI .....	845
<b>Bozorova Madina Raxmat qizi</b>	



HUDUDIY TURIZM XIZMATLARI BOZORIDA MEHMON UYLARINING ULUSHINI OSHIRISHNING IQTISODIYOTGA TA'SIRI.....	850
<b>Dilbar Xasanovna Aslanova, Jasur Farxodovich Fattayev</b>	
АНАЛИЗ РАЗРАБОТКИ ЖЕНСКИХ КОЛЛЕКЦИЙ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ СТИЛИСТИЧЕСКИХ И КОНСТРУКТИВНЫХ ОСОБЕННОСТЕЙ ПЕТРО-МОДЫ.....	854
<b>Абдурахманова Н., Рахматуллаева У. С.</b>	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATINI OSHIRISHNING ASOSIY MOLIVAVIY YO'NALISHLARINI BOSHQARISH MASALALARI.....	859
<b>Daniyarov Quwatbay Dáwirxanovich, Turdimuratova Gulsanem Asqar qizi</b>	
BUXORO SHAHRIDAGI PREZIDENT MAKTABINING MOLIVAVIY-IQTISODIY FAOLIYATI VA BOSHQARUV TIZIMINI TAHLIL ETISH.....	866
<b>Davidxodjayev Oybek Obidovich</b>	
ORGANIZATIONAL AND ECONOMIC MECHANISM FOR ENSURING FOOD SECURITY AND ITS STRUCTURAL COMPOSITION.....	871
<b>Mattiyev Sodiqjon Qodirovich</b>	
ISSIQ-QURUQ IQLIM HUDUDLARIDA BINOLARNING ENERGIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA DINAMIK QUYOSHDAN HIMOYALOVCHI TIZIMLARNING ARHITEKTURAVIY-INJENERLIK YECHIMLARI.....	876
<b>Ahmadov Tolibjon Akmalovich</b>	
Iqtisodiy tizimda risk va uning xususiyatlari tahlili.....	879
<b>Nasimov Ravshanjon Azimovich</b>	
YASHIRIN IQTISODIYOT VA UNI RAQAMLI NAZORAT SHAROITIDA QISQARTIRISH USULLARI.....	887
<b>Nargiza Muzafarovna Babaeva</b>	
YURAK-QON TOMIR KASALLIKLARINI BASHORAT QILISHDA MASHINALI O'QITISH ALGORITMLARINING QIYOSIY TAHLILI.....	894
<b>Saytov Kamiljan Begdullaevich, Bekniyazova Nurjamal Danaevna, Xudaynazarova Malika Orinbaevna</b>	
TIJORAT BANKLARI KREDITLARI ASOSIDA YOG'-MOY SANOATI KORXONALARINI TRANSFORMATSIYA QILISH ISTIQBOLLARI.....	903
<b>Azlarova Dilnoza Axrorovna</b>	
YASHIL OBLIGATSIYALAR BOZORINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	908
<b>Mamayusupova Shahina Ulug'bek qizi</b>	
QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINING IQTISODIY SAMARADORLIGI: QUYOSH, SHAMOL VA GIDRO ENERGIYANI INVESTITSIYA VA DAROMAD TAHLILI.....	914
<b>Sohibov Azizbek, Karimova Komila</b>	
BUXORO TARIXIY MARKAZIDA TURISTIK SIG'IMNI ILMIY ASOSDA BOSHQARISH: KO'KALDOSH MADRASASI TAJRIBASI.....	919
<b>Ikromova Shaxinabonu, Qilichov Muhriddin</b>	
DAVLAT XARIDLARIDA TCO-UMUMIY EGALIK QIYMATI ASOSIDA BAHOLASHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	926
<b>Turabov Sarvar Abdumalikovich</b>	



# DAVLAT XARIDLARIDA TCO-UMUMIY EGALIK QIYMATI ASOSIDA BAHOLASHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI

**Turabov Sarvar Abdumalikovich**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

ORCID: 0009-0005-6133-0008

Email: sarvarbobur0210@mail.ru

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada davlat xaridlarida TCO (umumiy egalik qiymati) asosida baholash metodologiyasining iqtisodiy samaradorligi tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi TCO metodologiyasining nazariy asoslarini yoritish, xalqaro tajribani o'rganish hamda uni O'zbekiston davlat xaridlari tizimiga, xususan, PF–259-son Farmoni doirasidagi islohotlarga integratsiya qilish imkoniyatlarini baholashdan iborat. Tadqiqotda normativ-huquqiy, qiyosiy institutsional va ilmiy adabiyotlar tahlili yondashuvlari qo'llanildi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, TCO metodologiyasi davlat xaridlarini faqat boshlang'ich narx asosida emas, balki mahsulot yoki xizmatning butun hayot sikli davomida yuzaga keladigan xarajatlar asosida baholash imkonini beradi. Maqolada PF–259-son Farmonida nazarda tutilgan sun'iy intellekt asosidagi narx monitoringi va elektron nazorat mexanizmlarining kelgusida AI-TCO modeliga integratsiyalash imkoniyatlari asoslangan. Xulosa sifatida, TCO metodologiyasini bosqichma-bosqich joriy etish davlat xaridlarida iqtisodiy samaradorlikni oshirish, yashirin xarajatlarni kamaytirish va davlat mablag'laridan foydalanish sifatini yaxshilashga xizmat qilishi ta'kidlanadi.

**Kalit so'zlar:** davlat xaridlari, umumiy egalik qiymati, hayot sikli xarajatlari, iqtisodiy samaradorlik, davlat boshqaruvi, sun'iy intellekt, elektron xaridlar, raqamli monitoring, xarid baholash tizimi, eng maqbul iqtisodiy qiymat.

**Аннотация:** В данной статье анализируется экономическая эффективность методологии оценки государственных закупок на основе TCO (совокупной стоимости владения). Цель исследования заключается в раскрытии теоретических основ методологии TCO, изучении международного опыта, а также оценке возможностей её интеграции в систему государственных закупок Узбекистана, в частности в рамках реформ, предусмотренных Указом УП–259. В исследовании применялись нормативно-правовой, сравнительно-институциональный и аналитический подходы к изучению научной литературы. Результаты показывают, что методология TCO позволяет оценивать государственные закупки не только на основе первоначальной цены, но и с учётом расходов, возникающих на протяжении всего жизненного цикла товара или услуги. В статье также обоснованы возможности интеграции механизмов мониторинга цен и электронного контроля на основе искусственного интеллекта, предусмотренных Указом УП–259, в будущую модель AI-TCO. В качестве вывода подчёркивается, что поэтапное внедрение методологии TCO будет способствовать повышению экономической эффективности государственных закупок, сокращению скрытых затрат и улучшению качества использования государственных средств.

**Ключевые слова:** государственные закупки, совокупная стоимость владения, затраты жизненного цикла, экономическая эффективность, государственное управление, искусственный интеллект, электронные закупки, цифровой мониторинг, система оценки закупок, наиболее выгодная экономическая стоимость.

**Abstract:** This article analyzes the economic efficiency of the TCO (Total Cost of Ownership)-based evaluation methodology in public procurement. The aim of the study is to explain the theoretical foundations of the TCO methodology, examine international experience, and assess the possibilities of integrating it into the public procurement system of Uzbekistan, particularly within the framework of reforms introduced under Presidential Decree DP–259. The research applies normative-legal, comparative institutional, and scientific literature analysis approaches. The findings indicate that the TCO methodology enables the evaluation of public procurement not only on the basis of the initial purchase price, but also by considering the costs arising throughout the entire life cycle of a product or service. The article also substantiates the future integration possibilities of artificial intelligence-based price monitoring and electronic control mechanisms envisaged in Presidential Decree DP–259 into the AI-TCO model. In conclusion, it is emphasized that the gradual implementation of the TCO methodology can enhance the economic efficiency of public procurement, reduce hidden costs, and improve the quality of public fund utilization.

**Keywords:** public procurement, total cost of ownership, life cycle costs, economic efficiency, public administration, artificial intelligence, e-procurement, digital monitoring, procurement evaluation system, most economically advantageous value.



## KIRISH

Davlat xaridlari milliy iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi bo'lib, rivojlangan mamlakatlarda YAIMning 10–15 foizini, rivojlanayotgan mamlakatlarda esa 20–30 foizini tashkil etadi. OECD ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yilda OECDga a'zo davlatlar tomonidan jami 13 trln AQSH dollari hajmida davlat xaridlari amalga oshirilgan.<sup>1</sup> An'anaviy davlat xaridlarida “eng past narx” mezonini qisqa muddatli tejamkorlikni ta'minlagandek ko'rinib, uzoq muddatda texnik xizmat ko'rsatish, ekspluatatsiya, energiya sarfi va ta'mirlash kabi qo'shimcha xarajatlarning oshishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli zamonaviy davlat xaridlari amaliyotida hayot sikli xarajatlari va umumiy egalik qiymati (TCO) asosida baholashga e'tibor kuchaymoqda.<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasida davlat xaridlari islohotlari yangi bosqichga kirdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrda “Davlat xaridlari tizimida raqobat muhiti va shaffoflikni ta'minlash bo'yicha navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida”gi PF-259-son<sup>3</sup> Farmoni asosida tegishli mexanizmlar joriy etilib, 2030-yilgacha davlat xaridlarida raqobatli usullardan foydalanish darajasini 80 foizga yetkazish, tejab qolinadigan mablag' miqdorini 25 trln so'mga yetkazish kabi maqsadli ko'rsatkichlarni belgiladi.

Ushbu maqolada TCO metodologiyasining nazariy asoslarini yoritish, xalqaro tajribani tahlil qilish hamda uni O'zbekiston davlat xaridlari tizimiga, xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrda “Davlat xaridlari tizimida raqobat muhiti va shaffoflikni ta'minlash bo'yicha navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida”gi PF-259-son Farmoni doirasidagi islohotlarga integratsiya qilishning konseptual modeli o'rganiladi. Tadqiqot doirasida TCO metodologiyasining an'anaviy “eng past narx” mezoniga nisbatan ustun jihatlari, xalqaro amaliyotdagi qo'llanish mexanizmlari hamda O'zbekiston sharoitida bosqichma-bosqich tatbiq etish imkoniyatlari tahlil qilinadi.

## MAVUZGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Umumiy egalik qiymati — TCO (Total Cost of Ownership) konsepsiyasi xarid predmetini faqat boshlang'ich narx asosida emas, balki uning butun hayot sikli davomida yuzaga keladigan xarajatlar majmui sifatida baholashga asoslanadi. Akademik adabiyotlarda TCO xarid qilinayotgan mahsulot yoki xizmatning sotib olish, yetkazib berish, o'rnatish, foydalanish, texnik xizmat ko'rsatish, ta'mirlash va utilitatsiya bosqichlaridagi to'g'ridan-to'g'ri hamda bilvosita xarajatlarni qamrab oluvchi yondashuv sifatida talqin qilinadi<sup>4</sup>. Ellram va Siferd TCO ni strategik xarajatlarni boshqarishning muhim instrumenti sifatida baholab, xarajatlarni xarid oldi, xarid paytidagi va xariddan keyingi bosqichlarga ajratadi<sup>5</sup>.

TCO metodologiyasi hayot sikli xarajatlari — LCC (Life-Cycle Costing) yondashuvi bilan chambarchas bog'liq. ISO 15686-5:2017 standarti binolar va infratuzilma obyektlari uchun hayot sikli xarajatlarni baholash tamoyillarini belgilaydi (ISO, 2017). Yevropa Ittifoqining 2014/24/EU Direktivasi esa davlat xaridlarida iqtisodiy jihatdan eng foydali taklif (MEAT) mezonini qo'llash orqali narx bilan bir qatorda sifat, ekspluatatsiya xarajatlari, ekologik va ijtimoiy omillarni ham hisobga olish zarurligini belgilaydi.

Institutsional iqtisodiyot nuqtayi nazaridan TCO yondashuvi axborot asimmetriyasi va sifatsiz mahsulot tanlash xavfini kamaytirishga xizmat qiladi. Akerlofning “limonlar bozori” nazariyasiga ko'ra, sifat haqidagi axborot xaridor va sotuvchi o'rtasida teng taqsimlanmagan holatda bozorda past sifatli mahsulotlar ustunlashib qolishi mumkin. Davlat xaridlarida ham faqat “eng past narx” mezoniga tayanish keyingi bosqichlarda texnik xizmat, ekspluatatsiya va ta'mirlash xarajatlarning ortishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli TCO metodologiyasi xarid predmetining uzoq muddatli iqtisodiy samaradorligini baholash vositasi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi<sup>6</sup>.

O'zbekiston Respublikasida davlat xaridlari tizimini raqamlashtirish va iqtisodiy samaradorlikni oshirishga qaratilgan islohotlar TCO metodologiyasini joriy etish uchun institutsional asos yaratmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrda “Davlat xaridlari tizimida raqobat muhiti va shaffoflikni ta'minlash bo'yicha navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida”gi PF-259-son Farmonida sun'iy intellekt texnologiyalari asosida xarid predmetining o'rtacha bozor narxini hisoblab beruvchi elektron modulni joriy etish nazarda tutilgan. Mazkur mexanizm kelgusida TCO komponentlarini avtomatik baholash va xaridlarning uzoq muddatli iqtisodiy samaradorligini aniqlash uchun metodologik asos bo'lishi mumkin.

- 1 OECD. (2023). Government at a glance 2023. Paris, France: OECD Publishing. <https://doi.org/10.1787/3d5f5f58-en>
- 2 Ellram, L. M. (1993). Total cost of ownership: Elements and implementation. *International Journal of Purchasing and Materials Management*, 29(4), 3–11. <https://doi.org/10.1111/j.1745-493X.1993.tb00015.x>
- 3 <https://www.lex.uz/uz/docs/-7952218>
- 4 Ellram, L. M. (1993). Total cost of ownership: Elements and implementation. *International Journal of Purchasing and Materials Management*, 29(3), 2–11. <https://doi.org/10.1111/j.1745-493X.1993.tb00013.x>
- 5 Ellram, L. M., & Siferd, S. P. (1998). Total cost of ownership: A key concept in strategic cost management decisions. *Journal of Business Logistics*, 19(1), 55–84.
- 6 Akerlof, G. A. (1970). The market for “lemons”: Quality uncertainty and the market mechanism. *The Quarterly Journal of Economics*, 84(3), 488–500. <https://doi.org/10.2307/1879431>

## TADQIQOT METODOLOGIYASI


Mazkur tadqiqotda davlat xaridlarida TCO (Total Cost of Ownership) metodologiyasining iqtisodiy samaradorligini baholash uchun normativ-huquqiy, qiyosiy institutsional va ilmiy adabiyotlar tahlili yondashuvlari qo'llanildi. Tadqiqotning asosiy manbalari sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-259-son Farmoni, OECD hisobotlari, Yevropa Ittifoqining 2014/24/EU Direktivasi, ISO 15686-5:2017 standarti hamda TCO va life-cycle costing bo'yicha klassik ilmiy adabiyotlardan foydalanildi.

Tadqiqotda TCO metodologiyasining nazariy asoslari institutsional iqtisodiyot va xarajatlarni strategik boshqarish yondashuvlari asosida tahlil qilindi. Davlat xaridlarida "eng past narx" mezonining iqtisodiy cheklovlari, yashirin ekspluatatsion xarajatlar va sifat bilan bog'liq risklar izohlandi. PF-259-son Farmonida nazarda tutilgan sun'iy intellekt asosidagi narx monitoringi va elektron nazorat mexanizmlarining kelgusida AI-TCO modeliga integratsiyalash imkoniyatlari ilmiy-analitik yondashuv asosida baholandi.

### TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston davlat xaridlari amaliyotini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, hozirgi kunda xaridlarni baholashda asosan boshlang'ich shartnoma narxiga ustuvor ahamiyat berilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrda "Davlat xaridlari tizimida raqobat muhiti va shaffoflikni ta'minlash bo'yicha navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-259-son Farmonida 2030-yilgacha raqobatli xarid usullarini 80 foizga yetkazish va davlat xaridlarida sezilarli iqtisodiy tejamkorlikka erishish bo'yicha maqsadli ko'rsatkichlarning belgilanishi mavjud tizimni iqtisodiy samaradorlik nuqtayi nazaridan takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi. Shu jihatdan, TCO (Total Cost of Ownership) metodologiyasi davlat xaridlarini faqat boshlang'ich narx asosida emas, balki mahsulot yoki xizmatning butun hayot sikli davomida yuzaga keladigan xarajatlar majmui asosida baholash imkonini beradi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrda "Davlat xaridlari tizimida raqobat muhiti va shaffoflikni ta'minlash bo'yicha navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-259-son Farmonida nazarda tutilgan sun'iy intellekt asosidagi narx monitoringi, risk indikatorlari va elektron nazorat mexanizmlari kelgusida TCO metodologiyasini joriy etish uchun institutsional asos yaratishi mumkin. Xususan, xarid predmetining o'rtacha bozor narxini hisoblovchi elektron modul texnik xizmat xarajatlari, energiya sarfi va ekspluatatsiya muddati kabi ko'rsatkichlarni ham hisobga oluvchi AI-TCO modeliga bosqichma-bosqich transformatsiya qilinishi mumkin. Bu esa davlat xaridlarida "eng past narx" tamoyilidan "eng maqbul iqtisodiy qiymat" tamoyiliga o'tishga xizmat qiladi (1-rasm).



### 1-rasm. Davlat xaridlarida TCO (Total Cost of Ownership) metodologiyasining ishlash mexanizmi<sup>7</sup>

Xalqaro tajriba TCO metodologiyasining davlat xaridlarida iqtisodiy samaradorlikni oshirish imkoniyatiga ega ekanini ko'rsatadi. Daniya, Niderlandiya, Germaniya va Janubiy Koreya kabi mamlakatlarda TCO va life-cycle costing yondashuvlarini qo'llash davlat xaridlarida ekspluatatsion xarajatlarni optimallashtirish, xarid sifati va aktivlarning xizmat muddatini oshirish bilan bog'liq ijobiy natijalarni bergan.<sup>8</sup> Shu asosda O'zbekiston uchun TCO

7 Manba: Muallif tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-259-son Farmoni asosida tuzildi.

8 European Commission. (2021). *Buying green! A handbook on green public procurement* (4th ed.). Luxembourg: Publications Office of



metodologiyasini bosqichma-bosqich joriy etish modeli taklif etiladi. Dastlab IT va tibbiy uskunalarda xaridlarida pilot loyihalarni amalga oshirish, keyingi bosqichlarda esa infratuzilma, transport va energetika xaridlariga tatbiq etish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bunda normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, sektorlar kesimidagi TCO metodikalarni ishlab chiqish va xarid mutaxassislari malakasini oshirish muhim institutsional shartlardan biri bo'lib qoladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, davlat xaridlarida faqat boshlang'ich shartnoma narxiga asoslangan an'anaviy baholash tizimi uzoq muddatli iqtisodiy samaradorlikni to'liq aks ettira olmaydi. TCO (Total Cost of Ownership) metodologiyasi esa mahsulot yoki xizmatning butun hayot sikli davomida yuzaga keladigan xarajatlarni kompleks baholash imkonini berib, davlat xaridlarida "eng past narx" tamoyilidan "eng maqbul iqtisodiy qiymat" tamoyiliga o'tish uchun metodologik asos yaratadi. Ellram, Akerlof hamda xalqaro standartlar asosida olib borilgan tahlillar TCO yondashuvi yashirin ekspluatatsion xarajatlarni kamaytirish, xarid sifati va uzoq muddatli iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qilishini ko'rsatdi.

Xalqaro tajriba tahlili Daniya, Germaniya, Niderlandiya va Janubiy Koreya kabi davlatlarda TCO va life-cycle costing metodologiyalarining davlat xaridlarida muvaffaqiyatli qo'llanilayotganini ko'rsatadi. Mazkur mamlakatlarda TCO yondashuvi xarid sifatini oshirish, ekspluatatsion xarajatlarni optimallashtirish va davlat mablag'laridan foydalanish samaradorligini kuchaytirish bilan bog'liq ijobiy natijalarni yuzaga keltirgan. Shu jihatdan, O'zbekiston davlat xaridlari tizimida ham TCO metodologiyasini bosqichma-bosqich joriy etish iqtisodiy samaradorlikni oshirishning muhim instrumenti bo'lishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrda "Davlat xaridlari tizimida raqobat muhiti va shaffoflikni ta'minlash bo'yicha navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-259-son Farmonida nazarda tutilgan sun'iy intellekt asosidagi narx monitoringi, elektron nazorat va risk indikatorlari kelgusida AI-TCO modelini shakllantirish uchun institutsional asos yaratadi. Biroq TCO metodologiyasini samarali joriy etish uchun normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, sektorlar kesimidagi metodikalarni ishlab chiqish, davlat xaridlari bo'yicha ochiq ma'lumotlar bazasini kengaytirish va professional xaridorlar malakasini oshirish zarur. Kelgusidagi tadqiqotlarda davlat xaridlari portali ma'lumotlari asosida TCO metodologiyasining real iqtisodiy samaradorligini empirik va ekonometrik yondashuvlar asosida baholash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. OECD. (2023). *Government at a glance 2023*. Paris, France: OECD Publishing. <https://doi.org/10.1787/3d5f5f58-en>
2. Ellram, L. M. (1993). Total cost of ownership: Elements and implementation. *International Journal of Purchasing and Materials Management*, 29(4), 3–11. <https://doi.org/10.1111/j.1745-493X.1993.tb00015.x>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2025). *Davlat xaridlari tizimida raqobat muhiti va shaffoflikni ta'minlash bo'yicha navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida* (PF-259-son Farmon, 2025-yil 26-dekabr). Toshkent, O'zbekiston: Lex.uz.
4. Ellram, L. M., & Siferd, S. P. (1998). Total cost of ownership: A key concept in strategic cost management decisions. *Journal of Business Logistics*, 19(1), 55–84.
5. International Organization for Standardization. (2017). *ISO 15686-5:2017: Buildings and constructed assets—Service life planning—Part 5: Life-cycle costing*. Geneva, Switzerland: Author.
6. Akerlof, G. A. (1970). The market for "lemons": Quality uncertainty and the market mechanism. *The Quarterly Journal of Economics*, 84(3), 488–500. <https://doi.org/10.2307/1879431>
7. European Commission. (2021). *Buying green! A handbook on green public procurement* (4th ed.). Luxembourg: Publications Office of the European Union.

# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Abdurahmon Qurbonov

---

**2026. № 5**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami: №095310.**

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod  
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



[t.me/yait\\_2100](https://t.me/yait_2100)